

2022 yil «17» 01

SHARTNOMA № 35

Jizzax shaxri

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati Jizzax bo'limmasi nomidan boshlig'i mayor X.B.Mamadiyarov O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik xizmati to'g'risidagi Nizom asosida ish yurituvi, (keyingi o'rinda "Buyurtmachi" deb yuritiladi) bir tomondan, **Jizzax Davlat Pedagogika Instituti** nomidan boshlig'i **M. T. Abduravov** (keyingi o'rinlarda

"Buyurtmachi" deb yuritiladi) ikkinchi tomondan o'zaro kelishuvga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi normalari, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy ba'zasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995 yil 12 maydagi "Xalq xo'jaligida hisob-kitoblar o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining rasmiy uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-1154-son farmoni asosida ushbu shartnomani quyidagilarga kelishgan holda tuzdilar:

I. Shartnoma mavzusi.

1.1. «Buyurtmachi»ning jo'natmalarini, u ko'rsatgan oluvchilar manziliga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi hududida viloyat markazlarigacha etkazib berish, shuningdek Toshkent shahar va Jizzax shahri bo'yicha jo'natmalarni qabul qilish va manzilga yetkazib berish;

"Buyurtmachi"ning tasdiqlangan jadvali bo'yicha "Buyurtmachi"dan qabul qilingan jo'natmalarni respublikadan tashqaridagi oluvchilar manziliga Moskva shahri (Rossiya Federatsiyasi) orqali Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligiga a'zo mamlakatlar markazlarigacha yetkazib berish shartnoma mavzusi hisoblanadi.

1.2. «Buyurtmachi»ning jo'natmalari "Buyurtmachi" tomondan dam olish va bayram kunlaridan tashqari har kuni soat 09-00 dan 17-00 gacha "Buyurtmachi"ning binosida yoxud "Buyurtmachi" bilan kelishgan holda uning binosida qabul qilinadi va shu haqda tegishli hujjat rasmiylashtiriladi.

1.3. "Buyurtmachi"ning binosida jo'natmalar qabul qilinganligi, ularni tashish uchun ajratilgan avtoullov sarf-xarajatlari to'lanadi, shuningdek har bir jo'natmadan Tarifda belgilangan stavkada qo'shimcha yig'im undiriladi.

1.4. Vakolatli davlat boshqaruv organi (Moliya vazirligi) yoxud DFX boshlig'i tomondan tasdiqlangan tariflarga muvofiq, "Buyurtmachi" tomondan ko'rsatilgan qo'shimcha xizmatlar uchun o'zaro hisob-kitob "Buyurtmachi" tomondan mazkur shartnomada belgilangan tartibda va muddatlarda amalga oshiriladi.

II. "Buyurtmachi" jo'natmalarni manzilga yetkazib berish shartlari.

2.1. Toshkent shahar va Jizzax shahri bo'yicha jo'natmalarni "Buyurtmachi" tomondan ko'rsatilgan manzildagi oluvchiga qo'ldan-qo'lga yetkazib beradi. Agar jo'natmalarni oluvchi respublika hududidagi viloyat markazidan quyi (tuman, shahar)da joylashgan bo'lsa, jo'natmalar O'zR ATvaKRK "Respublika Maxsus aloqa bog'lamasini" DUK bilan DFX

(DFXB) o'rtasida tuzilgan o'zaro shartnomalar asosida hududiy maxsus aloqa tarmog'i (tarifi) orqali yetkazib beriladi.

2.2. "Buyurtmachi" qabul qilgan jo'natmalarni buyurtmaga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi hududida viloyat markazlarigacha, respublika hududidan tashqaridagi oluvchilar manzillariga Moskva shahri (Rossiya Federatsiyasi) orqali Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH)ga a'zo mamlakatlar markazlarigacha yetkazib beriladi.

2.3. Jo'natmalarni yetkazib berish "Buyurtmachi"ga tegishli bo'lgan maxsus avtoullovda DFX vakolatli mansabdor shaxsi (feld'eger) orqali (istisno hollarda "Buyurtmachi"ning avtoullovda) oluvchilar joylashgan manziliga qarab, aviatsiya, temir yo'li, daryo transporti orqali yoki avtotransport vositasida tezkor usulda amalga oshiriladi.

2.4. "Buyurtmachi" "Buyurtmachi" bilan o'zaro kelishuviga muvofiq jo'natmalarni zaruriyatga qarab, yo'nalish doirasidan tashqari - O'zR ATvaKRK DFX vakolatli mansabdor shaxsi (feld'eger) orqali yuborishi mumkin. Bunda "Buyurtmachi" tomondan amalga oshirilgan qo'shimcha xizmatlar sarf-xarajatlarni qoplash uchun "Buyurtmachi" tasdiqlangan Tariflar asosida qo'shimcha haq to'lashini kafolatlaydi.

2.5. "Buyurtmachi"ning manzilga yuborish uchun jo'natmalari bo'lmaganda yoki jo'natmalar tayinlangan muddatda jo'natishga tayyor bo'lmaganda, DFX vakili - feld'egerning nazorat varag'iga "jo'natmalar mavjud emas" degan yozuv kiritiladi va "Buyurtmachi"ning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi. Ushbu xolatda "Buyurtmachi" amaldagi Tarifga binoan avtoullov sarf-xarajatlari uchun qo'shimcha haq to'lanishini kafolatlaydi.

2.6. "Buyurtmachi"ning jismoniy shaxslarga, bozor, savdo komplekslari va turtar joylarga yo'naltirilgan jo'natmalarini manzilga yetkazib berish uchun "Buyurtmachi" tomondan qabul qilinmaydi.

III. Shartnoma summasi va uni to'lash tartibi.

3.1. "Buyurtmachi" tomondan "Buyurtmachi"ga ko'rsatilgan feld'egerlik xizmati uchun undiriladigan to'lov haqi miqdori tasdiqlangan Tariflar asosida belgilanadi. Mazkur shartnomani imzolovchi tarafdaming o'zaro kelishuviga muvofiq shartnoma summasi belgilanadi (ko'rsatiladigan feld'egerlik xizmatlari turlari bo'yicha to'lov haqi stavkasi tasdiqlangan tariflar ilova qilinadi).

3.2. Ushbu shartnomaning umumiy summasi o'zaro kelishuvga ko'ra, bir yilga 300000 (yuz to'qson ming) so'mni tashkil etadi.

3.3. Ushbu shartnoma imzolangan sanadan boshlab, besh bank ish kunida "Buyurtmachi" shartnoma summasining kamida 50% foizni "Buyurtmachi"ning bankdagi hisob-raqamiga pul ko'chirish yo'li bilan o'tkazib beradi. Shartnoma summasining qolgan qismi "Buyurtmachi" ko'rsatilgan xizmatlar uchun joriy moliya yil davomida reestrlar asosida to'lab boriladi.

3.4. "Buyurtmachi" tomondan "Buyurtmachi"ga ko'rsatilgan feld'egerlik xizmatlari va boshqa qo'shimcha ko'rsatilgan avtotransport xizmatlari uchun o'zaro hisob-kitob "Buyurtmachi" tomondan har o'yning 10-sanasisigacha amalga oshiriladi.

3.5. Shartnomaga ko'ra, feld'egerlik yoki qo'shimcha xizmatlar hajmi oshganligi uchun to'lov haqi miqdori, ya'ni shartnoma summasi o'zgargan taqdirda, bartaraf etish uchun "Buyurtmachi" va "Buyurtmachi" o'rtasida buxgalterlar tomondan taqqoslash dalolatnomasi tuzilib, imzolalanadi, muhr bilan mustahkamlanib, qarzdorlikni qoplash uchun o'zaro hisob-kitob amalga oshiriladi.

uning manzili, shahar, respublika; konvertning o'ng quyi qismida: oluvchining nomi, davlat, shahar uning manzili, telefon), manzil ko'rsatkichidan oldin «qerdan» va «qaerga» («Kimga») mazmunidagi yozuvlar kiritilishi kerak.

5.3. "Buyurtmachi" manzilga oid ma'lumotlarni va paketlardagi boshqa yozuvlarni axborot texnologiyalari vositalari (Komp'yuterda bosmaxona usulida, siyoh yoki sharikli ruchka bilan aniq va tushunarli qilib (siyoh yoki pasta qora, ko'k yoki binafsha rangda bo'lishi kerak) yozishi shart. Oluvchining manzili qisqartirilmasdan yozilishi zarur.

5.4. Paketning orqa tomoniga "Buyurtmachi" konvert yelimlangan chiziq bo'yicha barcha qopqoqlarda o'zining mastika muhri bilan tamg'alanishi va mustahkamlanishi shart.

5.5. "Buyurtmachi" va "Bajaruvchi"ning yuridik (poetcha) manzillari, bank rekvizitlari, telefon raqamlari o'zgaragan taqdirda tomonlar bir-birini yozma ravishda xabardor qilish, o'zgartirilgan ma'lumotlarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

5.6. Agar jo'natmalar "Buyurtmachi"ning binosida qabul qilingan taqdirda, u o'z ofisida "Bajaruvchi"ga jo'natmalarni qabul qilish va ishlay berish, jo'natmalar bilan ishlashga moslashgan xona bilan ta'minlash majburiyatini oladi.

5.7. Agar jo'natmalar "Buyurtmachi"ning binosida qabul qilinsa "Buyurtmachi" kamida bir sutka oldin "Bajaruvchi"ga alohida buyurtma berish kerak.

5.8. "Buyurtmachi"ning faoliyatiga doir "Bajaruvchi" orqali yuboriladigan jo'natmalarning og'irligini standart talablariga muvofiq bo'lishi uchun "Buyurtmachi" vakilining shaxsan o'zi tarozida tortib ko'rishi va o'lchov natijasini reestrlarda alohida qayd etish huquqiga egadir.

5.9. "Buyurtmachi" jo'natmalarni oluvchi manzilga yetkazib, topshirilganligi to'g'risida "Bajaruvchi"dan yozma ma'lumotnoma olish huquqiga egadir.

VI. Tomonlarning javobgarligi.

6.1. "Bajaruvchi" yoki "Buyurtmachi" tomonidan ushbu shartnoma shartlari va zimmalariga olgan majburiyatlarini amaldagi qonunlar, normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'z vaqtida, sifatli va samarali bajarishlari shart.

Tarafdardan biri shartnoma shartlarini bir tomonlama buzgan taqdirda, huquqbuzarlikka yo'l qo'ygan tomon ikkinchi tarafga yetkazilgan zararni o'z hisobidan to'laydi.

6.2. Jo'natmalar "Bajaruvchi" tomonidan oluvchining manziliga o'z vaqtida yetkazib berilmagan, kechiktirib yetkazib berilgan yoki umuman yetkazib berilmagan taqdirda, u "Buyurtmachi"ga har bir kechiktirilgan kun uchun 0,5 foiz miqdorda, lekin o'z vaqtida yetkazib berilmagan, kechiktirib yetkazib berilgan yoki umuman yetkazib berilmagan jo'natmalar umumiy summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda peniya to'laydi.

6.3. Oluvchining manzilga yetkazilayotgan jo'natmalar "Bajaruvchi"ning aybli xatti-harakatlari (harakatsizligi) bilan shikast yoki ziyon yetkazilgan taqdirda, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda "Buyurtmachi"ga yetkazilgan zararni to'laydi.

6.4. "Bajaruvchi" tomonidan ko'rsatilgan feld'egertlik va boshqa qo'shimcha xizmatlarga haq o'z vaqtida to'lanmaganligi uchun "Buyurtmachi" "Bajaruvchi"ga muddatida to'lanmagan yoki ayrim hollarda to'lashdan bosh tortgan summaning 15 foizi miqdorida jarima to'laydi.

3.6. "Bajaruvchi" tomonidan tuzilgan shartnoma muddatida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi oshganligi va shunga mutanosib, shartnoma summasi miqdori hamda oshgan taqdirda, taraflarning o'zaro kelishuvi asosida amaldagi shartnomaga qo'shimcha kelishuv bitimi tuziladi va taraflar tomonidan ijro uchun qabul qilinadi.

3.7. "Buyurtmachi" tomonidan to'lov muddati kechiktirilgan yoki 90 kundan oshgan taqdirda "Bajaruvchi" o'z vakolati doirasida "Buyurtmachi"ning bankdagi hisob raqamidan mavjud qarz summasi (penya hisoblagan holda) inkasso topshiriqnomasi orqali undirib olishi mumkin.

IV. «Bajaruvchi»ning xuquq va majburiyatlari.

4.1. "Buyurtmachi" mazkur shartnomaning 3.3-bandiga muvofiq shartnoma summasining foizi miqdorida oldindan to'lov amalga oshirilgan vaqtdan boshlab "Bajaruvchi" shartnomaviy majburiyatlarini bajarishga kirishadi.

4.2. "Bajaruvchi" jo'natmalarni qabul qilib olingan vaqtdan oluvchiga topshirilgan vaqtgacha ularga ishlov berish, vaqtincha saqlash, manzilga yuborish, transport vositasi (aviatsiya, temir yo'l, daryo transporti yoki avtotransport)da tashish jarayonida jo'natmalarning saqlanishini, butligini ta'minlash yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

4.3. "Bajaruvchi" "Buyurtmachi"dan qabul qilayotgan jo'natma (paketlar, posilka, banderol) rostandart, ya'ni belgilangan me'yordan hajmi katta, vazni og'ir yoki portlovchi, yong'in xavfsizligi qoidalariga zid ravishda shubha o'yg'otgan taqdirda, bunday hollarda, jo'natmani qabul qilishni rad etish huquqiga ega.

4.4. "Bajaruvchi" jo'natmalarni (viloyat markaziga yo'llangan) O'zbekiston Respublikasi hududidagi viloyat markazlarigacha 72 soat mobaynida yetkazib berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi, dam olish va bayram kunlari bundan mustasno.

4.5. Qonun hujjatlari asosida Tariflar o'zgaragan taqdirda "Bajaruvchi" tomonidan "Buyurtmachi"gi yangi tahrirda tasdiqlangan Tariflar nussasini o'z vaqtida taqdim etadi va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qayta tasdiqlangan Tariflarga binoan hisob-kitob qilinadi.

4.6. "Bajaruvchi" zaruriyatga ko'ra, "Buyurtmachi"dan qabul qilib olingan ayrim turdagi jo'natmalarni O'zbekiston Respublikasi Davlat Bojxona qo'mitasi va uning hududiy organlari yoki boshqa tegishli vakolatli organlardan mazkur jo'natmani manzilga yetkazib berish uchun bojxona hududidan olib chiqishga ruxsatnoma rasmiylashtirib berishni talab qilish huquqiga egadir.

4.7. "Bajaruvchi" manzilga yetkazib beriladigan maxsus jo'natmalarni qabul qilish, saqlash, qo'riqlash tartibini, shuningdek yuborilayotgan jo'natmalarni turlari va cheklangan normalarni ishlab chiqishi, jo'natish tartibini belgilashi hamda transport vositasi (aviatsiya, temir yo'l, daryo transporti yoki avtotransport)da tashishning ketma-ketligi va navbatini qat'iy belgilash huquqiga egadir.

V. «Buyurtmachi»ning xuquq va majburiyatlari.

5.1. "Buyurtmachi"ning faoliyati bo'yicha "Bajaruvchi" orqali yuboriladigan maxfiy paketlardagi jo'natmalarni, alohida maxsus hujjatlarini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qaror va farmoyishi bilan tasdiqlangan me'yoriy hujjatlarda belgilangan qoidalariga, shuningdek maxfiy ish yuritish talablariga rioya qilingan holda rasmiylashtirish va "Bajaruvchi"ga topshirishga majburdir.

5.2. "Buyurtmachi" maxfiy bo'lmagan paketdagi jo'natmalarni standart talablarga muvofiq rasmiylashtirish shart (konvertning chap yuqori burchagida: jo'natuvchining nomi,

X. Shartnomaning amal qilish muddati.

10.1. Mazkur Shartnoma vakolatli shaxslar tomonidan imzolaniib G'aznachilikdan ro'yxatdan o'tgandan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31-dekabr gacha amal qiladi.

10.2. Mazkur shartnoma muddati tugagunga qadar, uni imzolovchilar tomonidan o'ttiz kun mobaynida shartnomaga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish yoki uni bekor qilish haqida taklif kiritilmagan taqdirda, shartnomaning amal qilishi yangi muddatga uzaytirilgan (prologatsiya qilingan) hisoblanadi.

10.3. Mazkur shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi qonun hujjatlarida belgilanganidek, shartnoma tuzish qoidalarini tadbiiq qilinadi, ya'ni har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma shakilda rasmiylashtiriladi va tomonlarning vakolatli mansabdor shaxslari tomonidan imzolaniib, muhr bilan tasdiqlangandan keyin haqiqiy va bajarilishi majburiy hisoblanadi.

10.4. Mazkur Shartnoma ikki nusxada tuzildi, ularning har ikkalasi bir xil yuridik kuchga ega. Rasmiylashtirilgan shartnoma nusxasi ilovalari bilan uch kun muddatda "Bajaruvchi" tomonidan ijrosini ta'minlash uchun "Buyurtmachi" ga yetkazib beradi.

Tomonlarning yuridik manzillari, bank rekvizitlari va telefonlari.

«Bajaruvchi»

Jizzax sh. Sharof Rashidov ko'cha, 63 uy
Tel. 226-23-14. Faks. 226-71-93

O'zbekiston Respublikasi Axborot
texnologiyalari va kommunikatsiyalarini
rivojlantirish vazirligi Davlat feld'egerlik
xizmati Jizzax bo'linmasi.

Jizzax sh. O'zR. TIF Milliy banki Jizzax
viloyat bo'limi.

Tel. 222-38-27.

h/r - 20210000600592205002,

MFO - 00121, INN - 202640764

«Buyurtmachi» ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JDP maxallasi: Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy Tel: 72-226-13-57, 72-228-59-94
H/r: 2340 2000 3001 0000 1010 XKKM Markaziy bank Bo'sh MFO: 00014 STIR: 200343 000 OKONK 02110 SHXV: 400910860084017094100079003
Moliya Vazirligi G'aznachiligi STIR: 201 122 919



6.5. Ko'rsatilgan xizmatlarga o'z vaqtida haq to'lamaganligi uchun "Buyurtmachi" har bir kechikirilgan kun uchun muddati o'tkazib yuborilgan to'lovning 0.4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tkazib yuborilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda "Bajaruvchi" ga penya (jarima) to'laydi.

VII. Qo'shimcha shartlar.

7.1. Mazkur shartnomaga ko'ra quyidagilar taqiqlanadi:

7.1.1 Ushbu shartnomaning 5.1, 5.2, 5.3, 5.4-bandlarida ko'rsatilgan talablar "Buyurtmachi" tomonidan buzilgan hollarda rasmiylashtirilgan jo'natmalarni oluvchi manzilliga jo'natish.

7.1.2. "Bajaruvchi" orqali kontrabanda, radioaktiv, zaxarlovchi, portlash xavfi bo'lgan, tez alangalanadigan va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida taqiqlangan boshqa kimyoviy moddalar, norkotik moddalar va prekursorlar, shuningdek inson hayoti uchun xavfli bo'lgan bakteriyalar, hujayralar uvildurug'lari, zaharli o'simliklar va boshqa iste'mol (noiste'mol) buyumlarini jo'natish.

VIII. Fors-major.

8.1. «Bajaruvchi» fors-major holatlarda jo'natmalar yo'qolganligi yoki shikastlanganligi uchun "Buyurtmachi" ga javobgar bo'lmaydi, ya'ni:

8.1.1. Suv toshqini, yong'in, zilzila, kuchli dovul, sel ketishi, qor ko'chkisi sodir bo'lganda va boshqa tabiiy ofatlar yuz berganda;

8.1.2. Tabiiy ofatlar yuz bergan xollarda "Bajaruvchi" ning feld'egerlik xizmatini amalga oshiruvchi xodimi halok bo'lganda yoki xodimning xizmat vazifasini bajarishga to'sqinlik qiluvchi va oldini olib bo'lmaydigan favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda;

8.1.3. Mazkur shartnomaning 7-bo'limida ko'rsatilgan kimyoviy va zaharli moddalar, buyum va ashyolar "Buyurtmachi" tomonidan "Bajaruvchi" orqali jo'natish uchun topshirilgan yoki kontrabanda yoxud taqiqlangan tijorat jo'natmalari vakolatli organlar tomonidan band solingan yoki musodara qilinganda;

8.1.4. Noqulay ob-havo va meteorologiya sharoitlarida transport vositasi (aviatsiya, temir yo'l, daryo transporti yoki aviotransport) ning parvoz qilishi, harakatlanishi vaqtincha to'xtatib qo'yilgan yoxud ularning texnik nosozligi sababli maxsus jo'natmalarini oluvchining manzilliga yuborish imkoni bo'lmaganda xodimi xalok bo'lganda yoki favqulodda vaziyatlarda;

8.2. Fors-major holatlari yuz bergan taqdirda "Bajaruvchi" kamida uch sutka muddatda "Buyurtmachi" ni yozma ravishda oldindan xabardor qiladi.

IX. Nizolarni xal qilish tartibi

9.1. Mazkur shartnomani imzolovchilar tomonidan zimmlariga olgan majburiyatlarini, shartnoma shartlarini bajarish jarayonida yuzaga kelgan nizolar mumkin qadar tomonlarning muzokaralar olib borish va o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinadi.

9.2. O'tkazilgan muzokaralarda tomonlar biror kelishuvga erishmagan taqdirda yuzaga kelgan xo'jalik nizolarini hal qilish O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi normalari, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonumi asosida sud tartibida amalga oshiriladi.